

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika fakul'teti

“Mehnat ta'limi” kafedrası

HAMROYEVA XONZODA DAVRONOVNA

**9-SINFDA «ISHLAB CHIQRARISH ASOSLARI» BO'LIMI
MAVZULARINI O'QITISH METODIKASI
(“Servis xizmati” yo'nalishi mavzulari misolida)**

5112100 – “Mehnat ta'limi” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi” kafedra mudiri
_____ p.f.n. Sh.H.Quliyeva
“ _____ ” _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar _____ p.f.n., dos. H.O.Jo'rayev
“ _____ ” _____ 2016 y.

“Himoya qilishga ruxsat berildi”
Pedagogika fakul'teti dekani
_____ Sh.R.Barotov
“ _____ ” _____ 2016 y.

Taqrizchi: Buxoro shahar 18-umumiy o'rta
ta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi
_____ S.Sh.Shafiyev
“ _____ ” _____ 2016 y.

Buxoro – 2016

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. MEHNAT DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	6-23
1.1. 9-sinfda «Ishlab chiqarish asoslari» bo'limi mavzularini o'qitish mazmuni.....	6
1.2. Kreativ faollikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	10
1.3. O'quvchilar ijodkorlik faoliyati turlarini tasniflash	16
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	23
II BOB. O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	24-47
2.1. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	24
2.2. O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	40
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	47
Xotima.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	49

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Respublikamizda izchil amalga oshirib borilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy modeli bugungi kunda jahon miqyosida e'tirof etildi va o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Erishilgan muvaffaqiyatlar bilan birgalikda, Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarishda ko'zda tutilganidek, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritish zarurati ham yuzaga keldi.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogic dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning tashkil topishini ko'zda tutadi. U ushbu ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining iste'molchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi [1], [2].

Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Shunday yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish uni zamonasining eng ilg'or bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan har bir sohada rivojlanishni talab qiladi. Buning uchun o'quvchi yoshlarimizning qiziqish va qobiliyatlariga qarab rivojlantirib borishimiz lozim.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi. IX sinf mehnat darslarida "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzularini o'qtishda kreativ texnologiyalardan foydalanib o'qitish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti: Mehnat fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayoni.

Bitiruv malakaviy ish predmeti: Mehnat fani darslarida kreativ faollikni rivojlantirish yo'llari va shakllari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Kreativ faollik tushunchasining mohiyati va vazifalarini tahlil qilish;
- mehnat ta'limi darslarida kreativ faollikdan foydalanishni uslubiy va didaktik jihatdan asoslash;
- mehnat darslarida o'quvchilarning kreativ faolligini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot usuli va usuliyoti: tadqiqot mavzusiga doir bo'lgan ilmiy-metodik adabiyotlarni, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat darslari tashkil qilinishini kuzatish, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbat o'tkazish; maktab me'yoriy hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish.

Olingan asosiy natijalar: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida IX sinf mehnat darslarida "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzularida kreativ faollikni rivojlantirish yo'llari va metodlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- mehnat darslarida kreativ faollikdan foydalanishning didaktik va uslubiy imkoniyatlari aniqlandi;
- IX sinf mehnat darslarida "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzularini o'qitishda kreativ faollikdan foydalanishning shakl va metodlari o'rganildi;
- IX sinf mehnat darslarida "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzularini o'qitishda kreativ faollikdan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: IX sinf mehnat darslarida "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzularini o'qitishda kreativ faollikdan foydalanish shakl va metodlari o'rganildi

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorlik: Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikadan umumiy o'rta ta'lim maktablari «Mehnat» fani darslarida qo'llab iqtisodiy samaradorlikga erishish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 1 ta chizma, 4 ta jadvalni o'z ichiga olgan va hajmi 50 sahifani tashkil etadi.

I BOB. MEHNAT DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. 9-sinfda «Ishlab chiqarish asoslari» bo'limi mavzularini o'qitish mazmuni

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida mehnat ta`limi fanini o`qitishning maqsadi - o`quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko`nikma, malakalarini, mehnatga qiziqish, mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ahamiyatini tushunishga o`rgatish hamda kasb tanlashga tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ta`limiy – tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim bo`ladi.

Tarbiyaviy vazifa - o`quvchilarning umummehnat ko`nikmalarini shakllantirish jarayonida ma`naviy-ahloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlik sifatlarini shakllantirib borish.

Rivojlantiruvchi vazifa - o`quvchilarning kasbgacha tayyorgarligini rivojlantirish, mehnat ta`limi mazmunini takomillashtirish orqali barkamol shaxs bo`lib yetishishlariga yordam berish.

Ijodiy vazifa - mehnat ta`limi jarayonida kasb-hunar asoslariga oid bilim, ko`nikma va malakalarini zamonaviy talablar darajasida bo`lishini ta`minlash uchun o`quvchilarning mustaqil ravishda ijodiy faoliyat yurita olishi.

Amaliy vazifa - buyum, narsa namunalar asosida zaruriy buyurtmalarni amalda bajara olish [3], [4].

Maktabda mehnat ta`limidan o`tkaziladigan mashg`ulotlar qo`yidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- o`quvchilarda dastlabki nazariy va amaliy mehnat tajribalarini hosil qilish, zamonaviy texnika borasidagi bilimlari doirasini yanada kengaytirish, ularda kishilar mehnati va mehnat jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo`lishga tayyorlash;

- o`ziga topshirilgan har qanday ishni uddalay bilish, mehnatning o`ziga xos madaniyati va uning nazariy asoslarini egallash, o`z ishini va o`rtoqlarining ishlarini rejalashtirish hamda tashkil eta olishga o`rgatish;

- o`quvchilarni mehnat ta`limi mashg`ulotlari jarayonida aqlli, odobli, yaxshi ahloqiy sifatlar shakllangan, did-farosatli hamda jismonan sog`lom qilib tarbiyalashni amalga oshirish.

Mehnat ta`limi fanining mazmunida shartli ravishda 5-9 sinflardan boshlab o`quvchilar kamida uchta yo`nalish bo`yicha tayyorgarlik ko`rishlari nazarda tutiladi. Masalan, qiz, o`g`il bolalar hamda ular uchun umumlashgan yo`nalishlar tanlanishi mumkin.

Mehnat ta`limining yo`nalishlaridan tegishlisi maktab atrofidagi korxonalar, tashkilot va kasb-hunar kollejlari keng tarqalgan sohalarga muvofiq tanlab olinadi. Har bir maktabda mehnat ta`limining quyidagi yo`nalishlaridan tegishlilari asos qilib olinadi:

- Texnologiya va dizayn
- Servis xizmati
- Qishloq xo`jaligi asoslari

Ushbu ta`lim yo`nalishlari mazmunan xalq hunarmandchiligi, ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo`naltirish bilan uyg`unlashtirilgan holda amalga oshiriladi [3], [4]. 9-sinfda o`quvchilarining "Servis xizmati" yo`nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo`limi bo`yicha egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalari quyidagicha tavsiflanadi.

"Servis xizmati" yo`nalishi bo`yicha o`quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo`lishlari kerak:

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligini, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo`nalishlarida ishlab chiqarish, uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro`yxati va ularning mazmuni, texnologik hujjatlarning yagona tizimi, uning davlat standartlari, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish,

o`lchash va taqqoslash texnologiyasini, olinadigan daromad, uni taqsimlash qoidalari; ishlab chiqarish korxonasi mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari, mehnatni ilmiy tashkil etishni, tabiatni muhofaza qilishni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo`llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo`llarini, texnologiya asosida mahsulot namunasini tayyorlashni bilish.

"Servis xizmati" yo`nalishi bo`yicha o`quvchilar quyidagi ko`nikmalarga ega bo`lishlari kerak:

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligini, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo`nalishlari bo`yicha ishlab chiqarish, uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro`yxati va ularning mazmuni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo`llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo`llarini, texnologiya asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

"Servis xizmati" yo`nalishi bo`yicha o`quvchilar quyidagi malakalarga ega bo`lishlari kerak:

Ishlab chiqarish asoslari: maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo`llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo`llari asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

Ishlab chiqarish asoslari (16 soat)

Shakllantiriladigan bilimlar: Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo`nalishlarida ishlab chiqarish va uning mohiyati. Ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro`yxati va ularning mazmuni. Texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari. Mahsulot

ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasi. Olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari. Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari. Mehnatni ilmiy tashkil etish. Tabiatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish.

Amaliy mustaqil ishlar: Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo'llarini o'rganish.

9-sinf "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzulari mazmuni 1.1-jadvalda berilgan.

1.1-jadval

11	Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosbati bilan uzviyligi	1
12-13	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalishlarida ishlab chiqarish va uning mohiyati. NI – 2.	2
14-15	Ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni	2
16-17	Texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari	2
18-19	Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasi	2
20	Olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari	2
21	Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari	1
22	Mehnatni ilmiy tashkil etish. Tabiatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish. NI-3	1
23-24	Amaliy mustaqil ishlar: Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo'llarini o'rganish	2
25-26	Detallarni vintlar, mixparchinlar, payvandlash, yelimlash usuli bilan qo'zg'almas, yarim harakatchan va qo'zg'aluvchan biriktirish texnologiyasi asosida mahsulot namunasini tayyorlash	

9-sinfda haftaga 1 soatdan jami 34 soatni tashkil etadi. Ishlab chiqarish asoslari bo'limidan 16 soat dars rejalashtirilgan bo'lib, shundan 14 soat nazariy, 2 soat amaliy mashg'ulot rejalashtirilgan.

1.2. Kreativ faollikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida

Ilmiy-texnik va pedagogik-psixologik adabiyotlarda ixtirochilik hamda ixtirochilik ijodkorligi tushunchalariga ko'plab tariflar keltirilgan. Jumladan, I.I.Kichkin ixtirochilikni ilmiy g'oyalarining texnik yechimlarga ijodiy tadbiqu, ilmiy texnika taraqqiyoti sur'atlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich, yangi texnika va texnologiyalar yaratilishining mezoni hamda uning yuqori ilmiy-texnik darajasini ta'minlovchi omil deb hisoblaydi. M.A.Vachevskiy "ixtiro qilish"ni "qo'yilgan masalani yechish uchun eskilaridan tubdan farq qiluvchi, odatdagi mantiqiy fikrlash yo'li bilan yetishib bo'lmaydigan yangi samarali texnik yechimni taklif qilish" deb ta'riflaydi [20]. Ixtirochilik ijodkorligi fan va amaliyotda ma'lum bo'lmagan yangi g'oyalarni ta'lim oluvchi tomonidan tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladigan jarayonni, ya'ni turli yangi texnik, ijodiy yechimlarni o'rganish, ishlab chiqish, sinab ko'rish va taqqoslash kabi tadqiqotchilik tavsifidagi vazifalarni amalga oshirishni ifodalaydi. Biroq, ixtirochilikdan farqli ravishda ixtirochilik ijodkorligida erishilgan natija yuqori talablar darajasida bo'lmasligi, misol uchun u patent bilan tasdiqlanmasligi mumkin, ammo bu jarayon ishtirokchisining bilim saviyasini oshiruvchi va mustahkamlovchi, faol va mustaqil fikrlash xislatlari, ma'naviy-ma'rifiy saviyasi sezilarli o'sishiga va kelajakda haqiqiy ixtirochi bo'lib yetishishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ixtirochilik ijodkorligi - bu nafaqat xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ijobiy samarali texnik yechim, balki ob'ektiv borliqni bilish yo'li hamdir.

Mohir pedagog Fitrat aqliy tarbiyaning o'qish-o'rganish orqali amalga oshishini ta'kidlaydi va bunda tabiatan inom etilgan - fikriy va ilm vositasida hosil bo'luvchi - kasbiy (komil) aqlni ajratib ko'rsatadi. U ta'limda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim deb biladi: 1. Ta'lim va tarbiyaning birligi. 2. Beriladigan bilimlarning ilmiyligi. 3. Bilimning tizimli va izchilligi. 4. Beriladigan bilimlarning bola yoshi va bilim darajasiga mosligi. 5. Bolaning bilimlarni ongli o'zlashtirishiga erishish. 6. Bilimning bolaga moddiy va ma'naviy foyda keltirishi.

1920-1950 yillarda o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil qilishning mazmuni, turli vosita va metodlari ishlab chiqilib, ular maqsadga muvofiq ravishda saralanib bordi [20]. Dastlab keng ko'lamda joriy etib boshlangan tadqiqotchilik metodlaridan keyinchalik an'anaviy metod va shakllarga qaytilib, ijodiy faoliyatni takomillashtirishda empirik tadqiqotlarga asosiy e'tibor qaratildi.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi [20].

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastik (fantaziya) [20].

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sosial – ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon – natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa sub'ekt – shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Y.A.Ponomarev, S.Y.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan [20].

D.B.Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- Shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;
- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati

tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanaai;

- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi [20].

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M.Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;
- faoliyatdagi kreativlik.

Potensial kreativlik - N.M.Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy sub`ektiv shartidir [20].

Faoliyatdagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim sub`ektiv shartidir [20].

Ko'pchilik konsepsiyalarda iqtidorlilik va uning rivojlantiruvchi asoslari shaxs kreativligi tushunchasi bilan ifodalanuvchi ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlari orqali tavsiflanadi kreativlik fikrlashda muloqatda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo'lishi mumkin. U umumiy holatda shaxs yoki uning alohida qobiliyatlarini tavsiflashi mumkin.

“Kreativlik” tushunchasining turli ta`riflari mavjud.

Ko'pchilik holatlarda “kreativlik” deyilganda texnik malakalarni egallash, yaxshilash va takomillashtirish, muammolarni o'zgacha nuqtai nazardan o'rganish, yangi nostandart yechimlarni topish qobiliyati tushuniladi. Insoning ijodiy imkoniyatlari to'g'ridan-to'g'ri bevosita uning bilim olish qobiliyatlari bilan bog'langan emas, va hamma vaqt ham u intellekt testlarda namoyon bo'lavermaydi.

Aksincha ijodkorlik egallangan bilimlarning miqdori va turli tumanligi bilan emas, balki qat'iy tarkib topgan tushunchalarni inkor eta oluvchi yangi g'oyalarni seza olish qobiliyati bilan izohlanadi. Ijodiy g'oyalar odatda relaksasiya paytida oldindan jiddiy izlanishlar natijasida tayyorlangan, jamlangan holda emas balki tarqoq diqqat paytida yuzaga keladi. Bunday "ilhom" kelishiga namuna sifatida D.I.Mendelev tomonidan elementlar davriy tizimini o'n besh yillik tinimsiz izlanishdan so'ng, uyqu paytida tushida topishini keltirish mumkin [20].

Ta'lim oluvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yorqin, nostandart fikr yurituvchi yosh avlodni tarbiyalash muammosi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida shaxs kreativligini tadqiq qilishga oid tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar natijalari sifatida zamonaviy pedagoglar e'tiborini o'ziga jalb qilayotgan empirik natijalar, shuningdek, ilmiy farazlar konsepsiyalarni qayd etish mumkin. Ko'pchilik konsepsiyalarda iqtidorlik va uning rivojlantiruvchi asoslari shaxs kreativligi tushunchasi bilan ifodalanuvchi ijodiy imkoniyatlari va shaxs kreativligi tushunchasi bilan ifodalanuvchi ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlari orqali tavsiflanadi. Kreativlik fikrlashda, muloqotda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo'lishi mumkin. U umumiy holatda shaxs yoki uning alohida qobiliyatlarini tavsiflash mumkin.

Kreativlikni jarayon sifatida o'rganish – keng tadqiq qilinuvchi yo'nalish hisoblanadi. "Kreativlik" tushunchasini o'rganish bilan bir qatorda xorijiy olimlar kreativ shaxs tavsifiga alohida e'tibor qaratadilar. Ko'pchilik holatlarda birinchi o'rinda moslashuvchanlik, kommunikativlik, mustaqillik kabi ko'nikmalar qayd etiladi [20].

Masalan, X.E.Trik kreativlikni eng umumiy ma'noda jarayonning o'tmishdagi, joriy vaqtdagi va istiqboldagi tavsifini ifodalaydi, uning natijasida inson (yoki insonlar guruxi) ilgari mavjud bo'lmaydigan narsani yaratadilar. Bundan kelib chiqqan holda u ijodkorlikni tadqiq qilishda kreativlikni quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) mahsulot sifatida;
- 2) jarayon sifatida;
- 3) qobiliyat sifatida;
- 4) shaxsning umumiy xarakter xislati sifatida.

Mehnat darslarida ta'lim tamoyillaridan foydalanib o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari quyidagilar:

1. O'qitish va o'qish ta'limi jarayonini yangi pedagogik texnologiyaga binoan tashkil etish. Unda, dunyo qonuniyatlarini ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining ongli sur'atda tushuntirish orqali o'quvchilarni yakka holdagi rivojlanish omillarga tayanish. Ta'lim jarayonidagi ikki jihat; tashqi tasvirlar va ichki imkoniyatlarni. Ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni bilish faoliyatlarini tashkil etish bosqichlariga tayanish lozim.

2. Mehnat ta'limidagi uzluksiz kasb – hunar ta'limi tamoyillariga binoan o'qituvchi faoliyatida ta'lim tamoyillarining o'rnini belgilashda o'quvchi bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanma – ta'lim tamoyillarini asos qilib olish muhim ahamiyatga ega.

3. Mehnat ta'limining tarbiyalovchilik xarakteridagi tamoyili tarbiyalovchi ta'limning asosiy qoidalari; dunyoqarashni shakllantirish, ahloqiy sifatlarni va irodani tarbiyalash, tarbiyalashni shakllantirish, qobiliyatni o'stirishga alohida e'tibor berish lozimdir.

4. Mehnat ta'limining ilmiylik tamoyillari ilmiy hamda asoslangan bilim – o'quvchi onggini haqqoniy rivojlantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Unda o'quv materialidagi ilmiy – qonuniyatlarni aks ettirish, nazariy qoidalarni tushunish – fikrlash faoliyati xarakterini belgilaydi.

5. Mehnat ta'limining ketma – ketlik tamoyili borliqning o'zi ma'lum ketma – ketlik bo'lishini hamma tomonlama taqazo etadi. Unda ta'lim jarayonida ham ketma – ketlik bo'lishi zarur. O'qitishdagi ketma-ketlik bo'lishi ma'lumdan - noma'lumga, yaqindan – uzoqqa, oson materialdan – qiyin materialni o'rganishga o'tishni taqazo etadi.

6. Mehnat ta'limining tushunarli bo'lish tamoyili ta'limning o'quvchi yoshlar tushunchasiga mosligi, yangi bilimlarni o'quvchi ongidagi bilimlar bilan bog'lab, tushunarli qilib turmush tajribasiga asoslanish, umumiy saviyani yuqoriga ko'tarish, o'quv materiallarini o'quvchi rivojlanishiga mos bo'lishi bilan amalga oshirish alohida e'tiborga sazovor.

7. Mehnat ta'limining ko'rsatmalilik tamoyili o'quvchilarga texnika-texnologiya tarixini hissiy bilish ko'rsatmalilik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Mehnat ta'limida o'qituvchining o'zi va amalga oshirgan dars jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalari asosiy ko'rsatma ekanligi, ta'limda yangi texnologiyalarni qo'llashga asos soladi.

8. Mehnat ta'limida onglilik va faollik tamoyili zaminida yo'nalishlar bilimlarni umumlashtiradi, nazariyalarning aniq qo'llanishi fikr yuritishni ancha aniqlashtiradi.

9. Mehnat ta'limida mustaqil bilimlar berish tamoyili zaminida, o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchi ongida uzoq vaqt saqlanishi keyinchalik amaliyotga tadbiiq etilishi uchun mustahkamlanishi zarur. O'quv materialidagi asosiy tushuncha qoidalarini bo'rttirish, asosiy fikr bola bilimlari bilan bog'lanishi, zarur qarash va e'tiqodlarni shakllantirishga asos soladi.

10. Mehnat ta'limining alohidalashtirish tamoyili o'quvchi shaxsiga yarasha alohida yondoshish, dars jarayonida va darsdan tashqari yondoshuvlar mazmunida ta'lim tamoyillarini qo'llashdagi o'zaro bog'liqliligi, ijobiy intilishlar hosil qilishadi. Unda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, dasturiy ta'limni hosil qilishga zamin bo'ladi [9], [10], [11], [12].

Mehnat ta'lim mazmuni tarixiy va milliy xususiyatlarga ega: Unda mehnat ta'limi aqliy rivojlantirish vazifasini o'z ichiga oladi shu bilan birga mehnat ta'limi mazmuni DTSlar asosida o'quv predmeti, dasturi va rejadan iborat. Darslikda keltirilgan ma'lumotlar mehnat ta'limi mazmunini ochib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Mehnat ta`limida o`quv predmetiga oid ta`lim mazmunini ochib berish, darsga oid hujjatlarni tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Dars jarayonida tug`iladigan muammolar tahlili, hozirgi zamon mutaxassislariga qo`yiladigan talablar, mutaxassislarni tayyorlashda o`qitish uslubiyotlari izchilligini ta`minlashga zamin hisoblanadi. Unda ta`lim mohiyatidan kelib chiqqan holda tamoyillardan foydalanib, mehnat ta`limi uslubiyotlarini qiziqarli va sifatli qo`llash muammolarini yechishini aniqlashga asoslanadi. Mehnat ta`limi uslubiyotlarini yangilash tavsiyalari tahliliy holatda ishlab chiqiladi.

1.3. O`quvchilar ijodkorlik faoliyati turlarini tasniflash

«Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da asosiy vazifa sifatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi belgilab berilgan. Ayniqsa, Prezidentimiz I.Karimovning asarlarida, risolalarida, maqolalarida va ma`ruzalarida kasbiy bilimlarni chuqur o`rganish muhim vazifa qilib qo`yilgan.

Hozirgi vaqtda umumiy o`rta ta`lim maktablarida, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda hamda oliy ta`lim muassalarida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo`llash va zamonaviy o`quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta`lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta`lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta`lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g`oyalari va davrimizning ilg`or yangiliklarini o`zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo`lmoqda [18], [19].

Shunday ekan o`qitish jarayonining vazifasi ta`lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta`minlashni nazarda tutadi. Biroq mehnat ta`lim yo`nalishlari bo`yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta`lim oluvchilarning qobiliyati, ong va ko`nikmalarini o`stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq. Bu xususiyatlar kelajakda ta`lim oluvchilar qobiliyatini

rivojlantirishga, o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshishiga yordam beradi. O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirrali. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ayniqsa o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo'lgan pedagoglar hamda qobiliyatli va mohir mutaxassislarini jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi va ularning ishlash mexanizmlari bilan tanishtirish zarur. Shunda biz jamiyatimizga yetuk malakali pedogog kadrlar yetishtirib bergan bo'lar edik.

Uzluksiz ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida hamda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir [13], [14], [16].

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratashda bosh islohadiga aylandi. Insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ijodkorlik faoliyati turlarini mezonlar asosida tasniflash ijodkorlikni turlari, ularning inson faoliyati davri mobaynida namoyon bo'lishi, ijodiy kasblari, ijodkorlik faoliyatini belgilovchi omillar, ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish metodlari, xususiyatlar va va hokazolarni bir tizimga solishdir [20].

Mezon – muayyan bir nazariya, ta`limot, fan, dunyoqarash yoki nazariy dasturning asosi; insonning e`tiqodi, voqelikka bo`lgan munosabati va xulq-atvor me`yorlarini belgilab beradi. Falsafada mezon – boshlang`ich nuqta, boshqaruvchi g`oya, xulq-atvor, o`zini tutishning asosi sifatida qaraladi. Mantiqiy ma`noda mezon markaziy tushuncha bo`lib, abstrakstiya sifatida olingan hodisaning barcha sohalariga tatbiq qilinuvchi, umumlashtiruvchi va tarqatuvchi tizimning asosidir.

N.M.Boritko pedagogik kategoriya sifatida mezonning quyidagi xususiyatlarini ko`rsatib o`tadi: boshqaruvchi talablar; tarbiyaviy jarayonning qonuniyatlari hamda ziddiyatlari; e`tiqod sifatida namoyon bo`luvchi ichki boshqaruvchi g`oya; ma`lum doiradagi hodisa va jarayonlarga nisbatan tatbiq etilish; mezonlar guruhida o`zaro ta`sirlashish va bir-birini to`ldirish.

Shunday qilib, ijodkorlik faoliyati turlarini tasniflash mezonlari – «Ijodkordik faoliyati turlari mavjudligini ta`minlovchi faoliyatning mazmuni va mohiyatini belgilab beruvchi qoidasidir».

Olib borilgan tadqiqot g`oyalariga tayanib, o`quvchilarning ijodkorlik qobilyatlari shakllanish yo`li va yo`nalishini belgilab beruvchi metodologik g`oya va qarashlarni ajratib olishga imkon beruvchi mezonlarini belgilab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu o`rinda N.S.Pryajnikov o`zaro bog`liqlikda bo`lgan mezonlar tizimida metodologik, tashkiliy-boshqaruvchilik, aniq amaliy va axloqiy xususiyatlarga ega g`oya va qarashlarni belgilab olish g`oyasini ilgari suradi.

Metodologik g`oya va qarashlarni aniqlovchi mezonlari quyidagilardan iboratdir:

Tarixiylik – predmetni uning rivojlanib borish jarayonida o`rganish. Mazkur mezon so`z yuritilayotgan tadqiqot asosida yotuvchi dialektik metodning muhim talabi hisoblanadi. V.I.Juravlyov ta`kidlaganidek «Har qanday ijtimoiy fan ob`ektni yaxlit va majmuaviy tarzda o`rganishni tarixiy mezoni asosida qaraydi. Shunga ko`ra, tadqiqotchi ob`ektning mavjud holati hamda istiqboldagi rolini baholaydi» [20].

Mantiqiylik – o'rganilayotgan ob'ektni alohida, uni o'rab turgan muhitdan ajratib olingan holda emas, balki aynan (mazkur tadqiqot ob'ekti misolida bo'lgani kabi), yaxlit tizim sifatida qarashni ko'zda tutadi. Aks holda, ushbu ob'ektni o'rganish natijalari tadqiqot mahsuli emas, balki faqat ma'lum natijalarni qayd etishdan iborat bo'lib qoladi.

Dialektik mezon – shaxsning ijtimoiy munosabatlarning faol sub'ekti ekanligi to'g'risidagi yetakchi falsafiy g'oyalar yangicha talqin qilish natijasida tadqiqotlar mazmuni ham vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Bu ma'noda dialektik mezon tarbiyaning yetakchi mezoni sifatida o'z davrining ustuvor ijtimoiy-madaniy g'oyalari yo'naltiriladi. Ijodkorlik faoliyati turlarini tasniflash o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni, ijodkorlik esa kasbiy faoliyatini loyihalashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj sifatida qaraladi. Ijodkorlik faoliyati jarayonini individual loyihalash g'oyalari ob'ektiv yetakchi mezoni bo'lib qolmoqda [20].

Mehnat ta'limi mazmuniga ko'ra o'quvchilar ijodkorlik faoliyati turlarini tasniflash mezonlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

A) Tubdan yangi yechimlarni oldinga surish faoliyati.

B) Faoliyatni detallashtirish, konkretlashtirish va yangi ishlab chiqarishni tubdan amalga oshirish uchun faoliyati .

C) Yangi fikrlash hayotga tadbiiq qilish uchun ularni obektglashtirish u yoki bu material shaklidagi faoliyat .

Bunday ijodiy faoliyat turlari hozirgi zamon ilmni olib borishda shu klassifikatsiya paydo bo'lishiga olib keldi. Bulardan tashqari ijodkorlik faoliyatini kasblarda ham o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

Ijodkorlik qobiliyati hamma yoshdagi kishilarga xosdir. Pedagogika fanidagi muammolardan biri esa maktab o'quvchilari bilan katta yoshdagi kishilarning ijodiy faoliyati orasidagi tub farqlarni aniqlashdan iborat.

Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarning va kattalarning ijodiy faoliyat jarayoni umumiy psixologik asosga ega bo'lib, u ularning yoshiga bog'liq emas.

Ya'ni ijodiy faoliyat jarayoni-izlash, izlanish, muammoning yechimini topish ishlari bolalarda ham, kattalarda ham psixologik tomondan bir xil kechadi. Biroq bu jiddiy faoliyatning pirovard natijasi prinsip jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni kattalar bilimi va hayotiy tajribasi nisbatan ko'p bo'lganligi uchun jamiyatga, fanga noma'lum bo'lgan yangilikni kashf etsalar, bolalar, o'quvchilar bilimi va tajribasi kam bo'lganliklari sababli ancha ilgari ochilgan yangiliklarni qaytadan "kashf" etishlari mumkin.

Amerikalik psixolog J.P.Gilfordning fikricha ijodkorlik faqatgina talantli, buyuk shaxslargagina emas, balki, oddiy, normal holdagi har bir insonga xos bo'lgan xususiyatdir. Bu fikrni o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida M.G.Davletshin, V.V.Davidov, A.N.Luk, A.Ya.Ponomaryov, K.V.Kudryavsev kabi tadqiqotchilar ham tasdiqlagan [20].

Taniqli o'zbek psixolog olimi E.G'.G'ozievning fikricha ijodiy ishlarda tafakkurning mustaqilligi katta ahamiyatga ega. "Tafakkurning mustaqilligi deganda - kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, ya'ni vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz (gipoteza) lar qilish, natijani ko'z oldiga keltira olish, qo'yolgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatini tushunish kerak" - deb ta'kidlaydi [20] .

Taniqli psixolog K.V.Kudryavsevning fikricha, texnik tafakkur texnik ijodkorlikning asosini tashkil etadi. U texnik tafakkurni masala shartini anglash yoki tushunish, uni xayolan tasavvur qilish va amalda bajara olish qobiliyatlaridan iborat, deb hisoblaydi [20].

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, ijodiy faoliyat natijasi bolalar va kattalardagi tafakkur doirasiga bog'liq ekan. Tafakkur doirasi qancha keng bo'lsa, mustaqil bo'lsa, ijodkorlik ham, ijodiy faoliyat ham shuncha yuqori saviyada bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday ijodiy faoliyatning pirovard natijasi biror yangilikni, ixtironi kashf etish bilan tugaydi. Mazkur kashfiyot o'z mazmuniga ko'ra ob'yektiv (hamma uchun yangilik), sub'yektiv (faqat o'zi uchun yangilik), xususiy (faqat o'zi yoki alohida-alohida holda foydalanish) va umumiy yoki ijtimoiy (butun jamiyat yoki ko'pchilik foydalana oladigan) ko'rinishlarda bo'ladi.

Agar kattalarning ijodiy faoliyati ko'pincha ob'yektiv va ijtimoiy ko'rinishdagi yangiliklarni kashf etish bilan tugallansa, o'quvchilardagi bunday ijodiy faoliyat natijalari esa ko'pincha sub'yektiv hamda xususiy ko'rinishdagi yangiliklarni yaratish bilan nihoyasiga yetadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ayrim hollarda o'quvchilarning ijodiy darajalardagi, ya'ni o'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatini shartli ravishda uch xil darajaga bo'lish mumkin:

1-daraja-quyi daraja. Bunda o'quvchilar tomonidan topiladigan yangiliklar asosan sub'yektiv ko'rinishda bo'ladi. Ya'ni bunda o'quvchilar ilgaridan ma'lum bo'lgan yangiliklarni boshqatdan "kashf" etadilar. Natijada bu yangilik faqat shu o'quvchining o'zi uchungina yangilik bo'ladi. Biroq bu jarayon ham oson kechmaydi. Chunki mazkur jarayonda ham o'quvchi kuchli psixologik holatlarni – masala mohiyatini tushunish, anglash, tasavvur etish, masala yechimini qidirish, ayrim yechimlarni taqqoslash kabi jarayonlarni boshidan kechiradi. Shu sababli, garchi, natija ilgaridan ma'lum bo'lsa ham, aynan shu natijaga kelishning o'ziyoq o'quvchida kelgusida uni ob'yektiv ijodiy faoliyatga o'tishi uchun zamin vazifasi bo'lib xizmat qiladi [20].

2-daraja – o'rta daraja. Bunda o'quvchilar tomonidan topilgan yangiliklar ham sub'yektiv, ham ob'yektiv ko'rinishlarda bo'ladi. Ya'ni bu darajaga erishgan o'quvchilarda yangilik yaratish usullarini bir muncha yaxshi egallaganlik, yangilik yaratish sohasida bir muncha tajribalar hosil to'plangan holatlarini kuzatishimiz mumkin. Shu darajaga erishgan o'quvchilarga kelgusida yaxshi e'tibor berilsa, ularning ijodkorlik qobiliyatlari yanada rivojlantirilsa – ular ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tib, uchinchi, ya'ni eng yuqori darajaga chiqa oladilar.

3-daraja – yuqori daraja. Bunda o'quvchilarning topgan yangiliklari asosan ob'yektiv ko'rinishida bo'ladi. Biroq bu darajaga erishish oson emas. Buning uchun avvalo o'quvchining o'zida intilish, qiziqish bo'lishi, o'qituvchi esa buni o'z vaqtida payqay olishi hamda o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini o'stirish tadbirlarini amalga oshirib borishi kerak [20].

Ma'lumki, V-VII sinflarda mehnat ta'limi bo'yicha o'quv dasturida o'quvchilarning ish usullarini o'rganishlari va mehnat malakasi hosil qilishlari uchun turli xil amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va buyumlar yasash ko'zda tutilgan. Ma'lumki, bu sinflarda, yangi o'smirlik davrida ayni bir xil yoshdagi o'quvchilar o'zlaring aqliy va jismoniy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra turlicha tushunish, fikrlash va ish bajarish qobiliyatlariga ega bo'ladilar. Buni ayniqsa, amaliy ishlarni bajarishda hisobga olish zarur. Shu sababli mehnat darslarida o'quvchilarning amaliy, ijodiy ishlarini tashkil qilishda ular tomonidan tayyorlanadigan buyumlarni tuzilishi, ularning qismlarini birlashtirish usullari, ularni tayyorlashda ishlatiladigan materiallarning, ish asboblari va ish usullarining turlari hamda soniga qarab quyidagi 5 ta toifaga yoki darajaga bo'lib olish maqsadga muvofiqdir:

1. Bir detalli eng oddiy buyumlar. Bularga ko'rsatgich tayoqcha, qistirma, chizg'ich, zulpin kabi buyumlarni kiritish mumkin.

2. Bir-ikki xil materialdan qilinadigan ko'p detalli oddiy birikmali buyumlar. Bularga kurakcha, quticha, zambil, pol yuvgich (shvabra), nutromer, kronserkul kabi buyum va asboblarni ko'rsatish mumkin.

3. Bir yoki bir necha xil materiallardan qilingan ko'p detalli, murakkab birikmali buyumlar. Bularga surat romchalari, rom, eshik, darvoza, kursi, sandiq, sandali kabi buyumlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

4. Oddiy mexanizmlil buyumlar. Bularga dastaki - qo'l tiskilari, vintli qotirgichlar, kolovorot kabilar misol bo'ladi.

5. Harakatlanuvchi buyumlar va radioqurilmalar. Bu toifaga mexanik yoki elektr qurilma yordamida harakatlanadigan, radio orqali boshqariladigan avtomobil, traktor, kema, samolyot, raketa modellari, turli xil o'yinchoqlar,

robotlar, radio signallarni tarqatuvchi, qabul qiluvchi, ovoz va tasvirlarni yozib oluvchi va qayta eshtiruvchi hamda ko'rsatuvchi qurilmalar va shu kabilarni kiritish mumkin [9], [10], [11], [12], [21].

Biz bu bilan aynan shu buyum yoki qurilma aynan shu toifa yoki darajaga mansub bo'ladi, degan qat'iy fikrdan yiroqmiz. Balki aynan bir xil nomdagi buyum yoki qurilma o'zining tuzilishi va badiiy ishlanishiga ko'ra murakkabroq ko'rinishlarda bo'lishi ham mumkin. Shu sababli bu darajalanishni umumiy holda tuzilgan deb qarash o'rinlidir. Binobarin, o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan buyumlarni bunday oddiydan murakkabga qarab boruvchi xususiyat asosida darajalarga bo'lib olinishi ularning o'smirlik davridagi aqliy va jismoniy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlarga mos holda besh xil yo'nalish bo'yicha amaliy, ijodiy mashg'ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning zerikmay, toliqmay, o'z imkoniyatlari darajasida mustaqil va ijodiy ishlariga katta yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan buyumlarning murakkablik darajasidan shu narsa ko'rinib turibdiki, 1-2-3-darajali buyumlarni V-VII sinf o'quvchilari bilan har qanday o'quv ustaxonasida yasash, binobarin kam kuch, material va vaqt sarflagan holda ularning ijodkorlik faoliyatlarini sezilarli darajada faollashtirish mumkin. 4-5-darajali buyumlarni yasash esa ko'proq yuqori sinf o'quvchilariga mos keladi va boy moddiy-texnik ta'minot, o'quvchi va o'qituvchilarning oldindan ma'lum tayyorgarligi bo'lishini taqozo etadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Mazkur bobda IX sinf "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi bo'yicha o'quvchilarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalari mazmuni, kreativ faollikni tushunchasining paydo bo'lishi, uning mazmun-mohiyati, kreativ faollikni rivojlantirishga oid qarashlar, kreativlik mexanizmlari, kreativlik faollik yo'nalishlari, o'quvchilar ijodkorlik faoliyati turlari to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan.

II BOB. O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Jamiyatni ijtimoiy va milliy ehtiyojlar asosida isloh qilish, yuksak insonparvarlik g'oyalariga bog'liq ekanligini hayot ko'rsatib turibdi. Bugungi milliy ehtiyoj kasb o'rganish muassalari oldiga shu nuqtai nazardan katta talablar qo'ydi. Ta'lim jarayoniga hayotiy talablar asosida mukammallik, aniqlik, izchillik baxsh etish orqali, uning samaradorligini oshirish yo'llarini izlash pedagogika sohasining bugungi vazifalaridan hisoblanadi [16].

Ma'lumki, har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyatli kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, o'z omilkorligini takomillashtirish ustida nechog'lik qunt va izchillik bilan ishlashiga bog'liq. O'qituvchilik kasbida esa o'z bilimdonligi, zukkoligi, kasb mahoratini takomillashtirish ustida umr bo'yi muntazam ishlamay turib, el ardoqlagan, obro'-e'tiborli pedagog bo'lish mumkin emas. Chunki o'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov hozirgi paytda o'qituvchilar oldiga davlat va jamiyat qo'ygan talablarni quyidagicha - «Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, Ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo, tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berish, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lish kerak» - deb ta'kidlaganlar [8].

O'qituvchilarga yangi axborot va pedagogik texnologiyalar asosida yangi shakl va mazmundagi kasbiy malaka berish ishi shunchalar keng qamrovli, ko'p qirrali, katta ko'lamlarga ega bo'lgan jarayondir.

Oliy ta`lim uzluksiz ta`limning pog'onasi sifatida o'z oldiga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni maqsad qilib oladi, bu o'quv maskanlari talablari chuqur umumilmiy bilimlarga va faoliyatining tanlab olingan sohasida zarur kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham ushbu ta`lim pog'onasi doirasiga kiradi. Oliy o'quv yurti mutaxassislarining asosiy ta`limi sifatida ham namoyon bo'ladi, chunki uni bitirib chiquvchi o'zining kasbiy o'sishida ham, umumta`lim yo'nalishida ham to'xtab qolmaydi. Bilish va voqelikni qayta o'zgartirishning qudratli vositalarini olgan holda ixtisoslashgan fanlar asoslarining mustahkam (fundamental) bilimlaridan foydalanibgina qolmasdan, ayni shu asoslarni qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqarishni yaxshilab yaratish, ijtimoiy amaliyotni rivojlantirish, tom ma'noda moddiy va ma'naviy madaniyatni o'z ijodiy mahsulotlari bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoty, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta`lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta`lim metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Hozirgi kunda pedagogika va o'qitish metodikasiga oid adabiyotlarda, ta`lim muammolariga oid ma`ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy pedagogik texnologiya» iboralari keng qo'llanilmoqda. «Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta`lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslarni va ularniig o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usulidir». Bu ta`rifdagi asosiy tushuncha «tizimli uslub» ekanligi ravshan, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizimi sifatidagi tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Aynan tizimli yondoshuv pedagogik texnologiyaning o'qitishga boshqa yondoshuvlardan

farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta`lim maqsadlari, uning mazmuni, o`qitish va ta`lim berish uslublari, nazorat va natijalarni baholashni o`zaro aloqa va bir-biri bilan bog`liqlikda loyihalash ko`pincha an`naviy o`quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir. Masalan, axborotni eslab qolishga yo`naltirilgan, ta`lim oluvchining bo`lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy boshqaruv va qarorlarni qabul qilish bilan bog`liq bo`ladi [8], [13], [14], [16].

Pedagogik adabiyotda pedagogik texnologiyaga oid ta`riflarni (V.Bespalko, V.Guseev, V.Slastenin, B. Lexachev, I.Volkov, M.Choshanov, M.Klarin, I.Lerner, CH.Yudin va boshqalar) ham keltiriladi, ammo ularning birontasi YUNESKO ta`rifi darajasiga ko`tarila olmagan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar orasida pedagogik texnologiya to`g`risidagi axborotni MDH mamlakatlari, jumladan, O`zbekistonda tarqalishida V.Bespalko va M.V.Klarinlarning ta`siri kuchliroq, M.V.Kalarin pedagogikadagi texnologik yondashuvni tarkibiy tuzilishi va mazmuni to`g`risidagi bir muncha to`laroq ma`lumotlarni e`lon qilingan [16], [17].

Pedagogik faoliyatda ba`zida «pedagogik texnologiya» tushunchasi bilan foydali bo`lsada avval o`zlashtirilgan na texnologik qurilmagai o`qitish uslublari ataladi. Aslida olganda, pedagogik texnologiya - bu o`qitishga o`ziga xos bo`lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogik sohasiga ko`chirilgan tasviri, ta`lim jarayoshshing muayyai standartlashuvi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya uslublari (o`zining boshlang`ich ma`nosida) dastlab o`qitishning harakatini namunaviy vaziyatidagi (belgilangan qoida bo`yicha) o`zlashtirish ta`lab etiladigan mahsuldor (reproduktiv) darajasi uchun ishlab chiqilgan. Reproduktiv ta`lim har qanday ta`limning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi, u insoniyat jamg`argan tajribani aniq o`quv fani doirasida o`zlashtirish bilan bog`liq. Ta`lim oluvchilarda bilim va ko`nikmalarning ma`lum poydevori hosil qilinganidan keyingina, ta`limning natijali produktiv va ijodiy yondoshish uslublari o`tish mumkin, bular uchun R.Gane, L.Briggs, A.Romishevski va V.Guseev pedagogik texnologiya muqobillarini ishlab chiqqanlar.

Shunday bo'lsada, taniqli olimlar B.Blum, D.Karatvol, N.Gronlund, J. Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalar harakati bilan rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydigan, takrorlanadigan pedagogik tuzilmani o'z ichiga olgan pedagogik texnologiya ishlab chiqilgandi.

Sanoatda «yuksak tenologiyalar» iborasi bor. Ular odatda, juda murakkab bo'ladi, katta sarmoyalar sarflanishini talab qiladi. Fanning so'ngi yutuqlariga asoslanadi. Xodimlardan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shunday bo'lsada, ular mahsulotning yuqori sifati va raqabotbardoshligini, pirovad natijada salmoqli foydani ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyani o'qitishdagi «yuksak» uslubiyati qatoriga kiritish mumkin, ammo uning joriy qilinishi katta sarflarni talab qilmaydi. Ta'lim sifatining kaliti pirovard oqibatda alohida o'quv yurti va aniq o'qituvchi deyidigan bo'lsak, pedagogik texnologiyani o'zlashtirish, asosan, pedagoglarni o'qitishni talab qiladi. Pedagogikada talablarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o'qitish usullari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rollar bajarish, mavzuviy o'qitish va hokazo [16].

Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi o'quvchilarga», bu bilimlarga ularning ehtiyoji va faollik darajasi bog'liq bo'lmagan holda, bevosita berish mumkin bo'lgan imkoniyatdan kelib chiqishadi. Shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi zaruriy axborotni ma'lum qilish va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir. Bunday o'quv jarayonida o'quv pedmeti soatlar miqdori, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar oralig'ida soatlar taqsimoti dars o'tish joyi qat'iy belgilab olinadi,

Zamonaviy pedagogikaga, ta'lim modellariga shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ishlab chiqarish-texnologiya jarayoniga, ko'zlangan maqsadlarga erishish kafolatini beradigan holda yondashish imkoniyatini yaratadi [17].

Ta'lim texnologiyasi o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish muayyan sharoitlarda loyihalashtirilgan natijalarga erishishini kafolatlash

maqsadida g'oyasi tashkil etiladi. Faoliyatga bunday yondashishning mohiyati-ta`lim jarayonini tizimlashtirishda-uni detallar bo'yicha aniq unsurlarga bo'lib tashlab maksimal darajada shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta`lim ana`naviy ta`lim asoslari, ta`lim usullari va vositalari, uni tashkil qilish shakllari va natijalari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish o'quv jarayonini takomillashtirishga jiddiy ko'maklashishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Mehnat ta`limi jarayonida o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil etish va shakllantirish metodikasini yoritishda ta`lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, zamonaviy ta`lim usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini nazarda tutish kerak.

Pedagogik texnologiya – xorijiy pedagogikaning yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi ta`lim jarayonining samarasini oshirish va o'qitish natijalarini kafolatlashdan iborat bo'lgan.

Pedagogik texnologiya - inglizcha “*an education technology*” so'zining noaniq tarjimasidan kelib chiqqan. U aslida “Ta`limiy texnologiya” deb tarjima qilinishi kerak [16], [17].

Ta`limga texnologiyani olib kirish butun asr mobaynida davom etmoqda. Taxminan 50-yillarning oxirigacha pedagogik texnologiya an`naviy ta`lim uchun texnik muhit hosil qilish, avtomatlashtirilgan vositalar majmuasini qurish bilan bog'liq bo'lgan.

Bugungi kunda ta`lim texnologiyasi pedagogik fanlar sohasi sifatida qaralmoqda. Texnologiyaning taraqqiyotida inson psixologiyasi katta o'rin tutadi. Tarixan ta`limiy texnologiya taktik jihatdan faoliyat ko'rsatgan va rivojlangan.

Ta`limiy texnologiya - deb, quyidagilarni o'z ichiga o'z ichiga olgan majmuaga tushuniladi.

- Rejalashtirilayotgan natijalar to'g'risida tasavvur mavjud bo'lishi;

- o'rganuvchilar joriy holatini aniqlashga yordam beruvchi diagnostik vosita;
- o'qitish modellari to'plami;
- aniq sharoitlar uchun optimal modelni tanlash mezon.

Pedagogik uslublar qo'llanilayotgan vositalarga bog'liq emas. Eng yangi uslub sifatida birorta o'qitishdan foydalanmasdan o'tiladigan uslublar hisoblanadi. Masalan: oddiy savol-javob uslubi ishning sifatini sezilarli oshirish mumkin.

O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda pedagogik texnologiyadan foydalanish bu mehnat ta'limi darslari mazmuniga ko'ra har bir darslarni tashkil etishda pedagogik texnologiya asosida biror bir metod va usullaridan foydalanish yoki qo'llash tizimlilikka va izchillikka rioya etilishi lozim ya'ni unda jarayonning mantig'i, uning barcha qismlari o'zaro bog'liqligi va yaxlitligi saqlanishi va ko'rinib turishi lozim.

Tizimlilik – pedagogik texnologiya tizimiga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak:

- jarayonning mantig'i;
- uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi;
- yaxlitligi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etish darslarda o'quvchilarini jamoasini boshqara olish ularni qiziqish xoxish o'zlashtirishiga qarab darslarni tashkil etish.

Boshqaruvchanlikda – qiziqishlar nazarda tutiladi:

- maqsadlar qo'yish;
- rejalashtirish;
- o'qitish jarayonini loyihalash;
- qadam baqadam tashxis qo'yish;
- natijaga tuzatish kiritish maqsadida vosita va metodlarni o'zgartirish [20].

Dars so'ngida har bir o'tilgan dars, darsda qo'llanilgan texnologiyaning to'g'ri qo'llanilganligi, o'zlashtirish darajasi o'quvchilarning olgan bilimlari,

oldingi darsga nisbatan o'zgarishlari albatta samarali bo'lishi va o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishmog'i o'z samarasini ko'rishi kerak.

Samaradorlik – zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud bo'ldi va ma`lum o'qitish standartlariga erishishni kafolatlaydi, natija bo'yicha samarador xarajatlar bo'yicha optimal bo'ladi.

O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda pedagogik texnologiya bir darsda emas albatta boshqa darslarda ham qayta qo'llanishi yoki takrorlanishi mumkin bu darsning turiga o'qituvchining yangi pedagogik texnologiyadan foydalanishiga bog'liq.

O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda pedagogik texnologiya quydagilardan tashkil topsa dars samarali va mazmunli bo'ladi. O'quv jarayonida keng tarqalgan metodlardan biri – shartli ravishda o'quv axborotlarining bayonini muammoli metod hisoblanadi. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilan farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Bu metod ta'lim oluvchilarning ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa , ijodiy metodida ko'ringan ko'nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin ta'lim oluvchilarni mashg'ulot so'ngida olgan barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg'otishga bevosita turtki beradi [20].

Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Ta'lim oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni

mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Shuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu erda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o'qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o'quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo'ladigan zaruriy ob'ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu

sababli muammoli o'qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir. Muammoli o'qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida joriy etiladi, u nostandart masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan fikrlashni shakllantiradi.

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur [17].

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilar-dan iborat:

- ta'lim oluvchilarning fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;
- nostandart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega [17].

Har qanday o'quv material ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. O'quvchilarga fan tarixini o'rgatishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, yechimlar fandagi yangi ma'lumotlar takroriy bosqichidagi an'anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. Kashfiyotlar

tarixi orqali izlanish mantiqini egallash – muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo'llardan biridir. O'qitishning an'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati, quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan «muammolik darajasi»ga bog'liq bo'ladi:

- muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida talaba uchun ma'lum va noma'lumlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi;

- muammo echimida o'quvchilar ijodiy ishtirokining ham jamoaviy ham shaxsiy hissalari hisobga olinadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko'ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga ta'lim oluvchilar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellectual zo'riqish mashaqqatlarigaa olib kelish, ta'lim oluvchilar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondira olmasligini ko'rsata bilish, ta'lim oluvchilarga o'quv muammolarini tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng rasional yo'llarini aniqlashga yordam berish kerak.

O'quv jarayonida muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. Ta'lim oluvchilar qo'yilgan vazifaning yechilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob bera olmaydilar.

2. Ta'lim oluvchilar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.

3. Vazifaning nazariy jihatdan yechilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.

4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va ta'lim oluvchilarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim yetishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd qilinadi:

- hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo'yish;

- olingan bilimlarning amaliy tadbiri usullarini topish uchun muammoli vazifa qo'yish;

- ta'lim oluvchilar hodisalar va harakatlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;

- ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan dalil va hodisalarni tahlil qilishga undash;

- ta'lim oluvchilarni dalil, hodisa, hatti-harakatlar, xulosalarni solishtirish, qiyos qilishga undash;

- ta'lim oluvchilarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan dalillar bilan tanishtirish [17].

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo'ymaydi. Har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida o'quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishning turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sathi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi sathda o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda uning yechilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi sathda o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, ta'lim oluvchilar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechadilar.

Uchinchi sath – o'ily sath bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga ta'lim oluvchilarni "ro'baro" qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Ta'lim oluvchilar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning yechilish usullarini tadqiq qiladilar.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muammoli texnologiyalardan foydalanish samarali ekanligini ta'kidlash o'rinli hisoblanadi.

Muammoli o'qitish texnologiyalarining mazmun – mohiyati va ulardan IX sinf mehnat darslarida foydalanish imkoniyatlariga to'xtalib o'tamiz.

“Bumerang” texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi. O'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash. O'quv jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonidan o'z baholarini egallashga imkoniyat yaratish. Ushbu texnologiyani qo'llagan o'qituvchilar o'z o'quv predmetlari mavzusi yoki erkin mavzu asosida quyidagi mazmundagi matnlardan foydalangan holda o'qitish va tarbiyalash jarayonini tashkil etishgan [7], [14].

“Bumerang” texnologiyasidan 9-sinf “Servis xizmati ” yo'nalishi “Ishlab chiqarish asoslari” bo'limi mavzularini o'qitishda foydalanishga misollar keltirmaiz.

Masalan;

1. Mavzu: «Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasi»

1-guruhga – Mahsulot sifatini nazorat qilish?

2-guruhga – Mahsulot sifatini nazorat qilishning kompleks tizimi?

3-guruhga – O'lchash va taqqoslash texnologiyasi?

2. Mavzu: «Olinadigan daromad va uni taqsimlanishi»

Tarqatma materiallar:

1-guruhga – Daromad haqida tushuncha bering?

2-guruhga – Milliy daromad deganda nimani tushunasiz?

3-guruhga – Milliy boylik haqida ma'lumot bering?

4-guruhga – Milliy daromadlarning taqsimlanishini tushuntiring?

3. Mavzu: «Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari»

Tarqatma materiallar:

1 -guruhga – Ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'llari

2-guruhga – Korxonada faoliyatini rejalashtirish

3-guruhga – Tejamkorlik va ishbilarmonlik

4-guruhga – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

“Rezyume” texnologiyasining mazmun-mohiyati va uni o'tkazish tartibi bilan tanishib chiqsak.

Texnologiyaning tavsifi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish [7].

Rezyume texnologiyasidan foydalanib mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi

bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon kilinadigan varaqlarini tarqatadi;

- har bir guruh a`zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

- kichik guruh a`zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot qiladi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

- o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

“Rezyume” texnologiyasidan 9-sinf “Servis xizmati ” yo'nalishi “Ishlab chiqarish asoslari” bo'limi mavzularini o'qitishda foydalanishga misol keltirmaiz (2.1-jadval).

2.1-jadval

Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlari bilan uzviyligi					
Zamonaviy ishlab chiqarish		Ishlab chiqarishning rivojlanish bosqichlari		Zamonaviy ishlab chiqarish va bozor munosabatlari	
Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.
Xulosa					

Guruhlarga bo'lingan o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilganlaridan keyin, o'qituvchi barcha fikrlarni umumlashtirib yakuniy xulosa yasaydi.

“Muammo” texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni mos o'rinlariga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh, va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi:

- o'quvchilar tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab qo'yish (agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa, u holda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi buyicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanishi mumkin);

- har bir guruh, a'zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi kog'ozga flomaster bilan yozib chiqadi;

- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan o'qib eshittiriladi;
- o'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi;
- tarqatilgan qog'ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh, a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;
- o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.
- yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir o'quvchi bajargan tahliliy ishini barchaga o'qib eshittiradi;
- muammolar va ularning yechimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- himoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlarga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Bunday texnologiya bilan o'tkazilgan mashg'ulot natijasida o'quvchilar qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar [7].

“Muammo” texnologiyasidan 9-sinf “Servis xizmati ” yo'nalishi “Ishlab chiqarish asoslari” bo'limi mavzularini o'qitishda foydalanishga misol keltirmaiz.

“Tabiatni muhofaza qilish va ishlab chiqarishning salbiy ta'siri” mavzusini o'qitishda ushbu texnologiyadan foydalanish imkoniyatlariga e'tibor qaratsak (2.2-jadval).

2.2-jadval

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
Atmosfera havosining buzilishi	Sanoat chiqindilarining atmosferaga chiqarilishi	Atmosfera mussafoligini saqlashga oid tanlovlar va tadbirlar o'tkazish

Dars jarayonida o'quvchilar guruhi muammoni yechish yuzasidan turli xil fikrlarini bayon qiladilar, o'qituvchi ularni umumlashtirib, muammoni kelib chiqish sabablarini bartaraf etish va uning yo'llari to'g'risidagi fikrlar yuzasidan yakuniy xulosa chiqaradi. Bunday metodlardan foydalanishga oid ko'plab misollar keltirish mumkin.

2.2. O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi

Mavzu:	Texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: Ta'limiy: O'quvchilarga texnologik hujjatlar, ularning ro'yxati va mazmuni, davlat standartlari haqida tushuncha berish; Tarbiyaviy: O'quvchilarga texnologik hujjatlar va ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish; Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning texnologik hujjatlar va ulardan foydalanishga oid tushunchalarini kengaytirish, ularda ishlab chiqarish sohalariga oid kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. Vazifalar: - o'quvchilarga texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari yuzasidan tegishli bilimlarni shakllantirish; - o'quvchilarni ishlab chiqarish korxonasi va uni boshqarish ishlariga oid bilimlarini kengaytirish.</p>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Metod: Suhbat o'tkazish, "Klaster", "Muammoli vaziyat". Shakl: Nazariy mashg'ulot. Vosita: Kompyuter, slaydlar, ko'rgazmali qurollar, namunalar. Nazorat: "Muammoli vaziyat" metodi, "Test sinovi" metodi. Baholash: 5 – ballik tizim asosida.</p>
Kutilayotgan natijalar	<p>O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilarning mashg'ulot davomidagi faolligini oshira oladi. Ularda darsga, texnika va ishlab chiqarishga qiziqish uyg'otadi. Amaliy</p>

	<p>mashg'ulotlar jarayonida barcha o'quvchilarni baholashga erishadi.</p> <p>O'quvchi: Mavzu bo'yicha yangi bilimlarni egallaydi. Individual holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari rivojlanadi. O'z – o'zini nazorat qilishni va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholanadi.</p>
Uyga vazifa	<p>O'qituvchi: Mavzu bo'yicha qo'shimcha yangi ma'lumotlar topish. Mavzuga oid test, tarqatma materiallarini va ko'rgazmali qurollarni tayyorlash. Kelgusi dars jarayoniga tadbiiq etish.</p> <p>O'quvchi: Mavzusi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy mashg'ulot jarayonida qo'llash, mustaqil ravishda do'ppini bichib kelish.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi: Pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, dars jarayoniga tadbiiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: Sohaga ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalar haqida qo'shimcha materiallar bilan tanishib, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. O'zining va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.</p>

Mashg'ulotning bosqichlari

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar
1 – bosqich 5 daqiqa	Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.	Suhbat o'tkazish
2 – bosqich 10 daqiqa	O'tilgan mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarga o'tilgan dars mavzusi bo'yicha bahs – munozara tashkil qiladi. Mavzuga oid muammoli savollarni tarqatma material sifatida o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilarga berilgan topshiriqlarni tekshiradi va baholaydi.	Bahs – munozara
3 – bosqich 20 daqiqa	Yangi mavzu bayoni. Mavzuning maqsadi, asosiy ma'no – mazmuni, qo'llaniladigan ish usullari o'quvchilarga tushuntirib beriladi.	“Klaster” metodi
4-bosqich 8 daqiqa	Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimni mustahkamlash: “Test sinovi” metodi, “Muammoli vaziyat” metodlari asosida o'quvchilar bilimi mustahkamlash.	“Test sinovi” metodi, “Muammoli vaziyat” metodi


5-bosqich 1-2 daqiqa	Uyga vazifa berish, darsni yakunlash. Mavzu yuzasidan qo'shimcha savollar tuzish hamda mustaqil ravishda doppi andazasini tayyorlab kelish.	“Muammoli vaziyat” metodi
---------------------------------	---	---------------------------

Tikuvchilik korxonalarida istalgan turdagi modelni yaratishda texnologik hujjatlarning yagona tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizimga asosan texnologik jarayonda foydalaniladigan har qanday normativ-texnik hujjatlar barcha tikuvchilik korxonalarida bir xil ko'rinishda bo'lib, bu hujjatlardan korxonalar bir-birining modellarini ishlab chiqarishda foydalani olishlari mumkin.

Bu hujjatlar davlat standartlari talablari asosida ishlab chiqilib, har bir korxonaga bunga amal qiladi.

Tikuvchilik korxonalarida yangi modellarni yaratish bilan yuqori malakali rassom-modelchilar, ya'ni dizaynerlar shug'ullanadilar. Dizaynerlar model eskizini zamonaviy moda yo'nalishida chizadilar. Konstruktorlar esa baza asoslarini ko'rib, rasmga asoslanib modelning birlamchi andozalarini tayyorlaydilar. Modelning baza asosiga asoslanib o'rtacha o'lcham – gavda uchun ishchi andozalar, yordamchi andozalar, model uchun hujjatlar tayyorlaydilar [6].

Klaster metodidan foydalanib, mazuga oid tushunchalarni bayon qilish mumkin (2.1-chizma).



2.1-chizma: Tikuvchilik korxonalarida ishni tashkil qilishda

“Klaster” metodini qo'llash

Normativ-texnik hujjatlar. Ma'lum bir seriyada ishlab chiqariladigan har bir model uchun buyumning o'rtacha razmer, rost, to'lalidagi namunasi tikiladi, shu model uchun etalon andozalar tayyorlanadi. Konstruktsiya aniq bo'lgandan keyin andozalar texnik ko'paytirishga yuboriladi. Andozalarni texnik ko'paytirish kartondan andozalarni kesish bilan birga AQShning "Multigreyder" asbobida va Germaniyaning "TSUZE" qurilmasida elektron-hisoblash texnikasi yordamida bajariladi. Bunda 7 xil razmerdagi andozalar tayyorlanadi [6].

Andozalar 3 xil bo'ladi: etalon andozalar, ishchi andozalar va yordamchi andozalar.

Etalon andozalar model namunasini tayyorlash uchun ishlatiladi. Ish andozalar 5 ta to'la komplektda tayyorlanadi, undan 2 tasi tajriba uchastkasiga gazlama sarfini aniqlash uchun, 1 tasi tayyorlov uchastkasiga bo'rlama tayyorlash uchun, 2 tasi bichish uchastkasiga beriladi.

Yordamchi andozalar tikuvchilik sexida kiyim detallaridagi bort burchaklari, cho'ntak o'rinlari, vitachkalar va izmalar o'rnini belgilash uchun ishlatiladi. Hamma andozalarga modelning nomeri, razmeri, rosti yoziladi.

Ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni

Ishlab chiqarish korxonalarida tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqaradigan texnologik jarayonni loyihalash quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

I-bosqich. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va texnik topshiriqlarni ishlab chiqish, ya'ni:

1. Model tanlash va asoslash.
2. Tanlangan buyum modellariga gazlama tanlash.
3. Tanlangan modeldagi buyumni tikish uchun asbob-uskuna tanlash va ular asosida tikish usulini belgilash.
4. Tikish usuli asosida tanlangan modeldagi buyumni tikish texnologik tartibini tuzish.

5. Tanlangan modeldagi buyumlarni ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tikish texnologik xaritasi shaklini tanlash.

II-bosqich. Tikuvchilik sexini loyihalash yuzasidan texnologik hisoblash ishlarini bajarish:

1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnishayotgan texnik jihozlarning texnologik sxemasini tuzish, ya'ni tikuv mashinalari, namlik-issiqlik ishlov berish asbob-moslamalarining o'rnini to'g'ri ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirish.

2. Texnologik sxemani taxlil qilish.

3. Tikuvchilik sexining texnika iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash.

4. Tikuvchilik tsexida ishchi o'rinlarini joylashtirish va uni rejasini tuzish.

Bu ikkita bosqichni amalga oshirish korxonaning tajriba, tayyorlov, bichish va tikish uchastkalarida amalga oshiriladi.

Kiyimlarni ishlab chiqarish uchun tayyorlov ishlari tajriba uchastkasidan boshlanadi. Bu ishlar quyidagilardan iborat:

1. Loyihalash, modellashtirish, har bir model uchun hujjatlarni tayyorlash;

2. Andozalar tayyorlash;

3. Barcha materiallarning sarflash meyorini aniqlash;

4. Trafaretlar tayyorlash;

5. Yangi modellar namunalarini tayyorlash, tikuvchilarga o'rgatish;

6. Yangi ishlov berish usullarini ishlab chiqish;

7. Yangi jixozlarni sinash, tekshirish va qo'llash.

Tajriba uchastkasi uchun Frantsiyaning «Lektra», Ispaniyaning «Investronika» firmasining «Invesmark» va AQShning «Gerber» firmasining AM-50 avtomatik loyihalash tizimlari (SAPR) bor. Bu tizimlar yordamida kiyimning yangi modeli, andozalari yaratiladi, andozalar texnikaviy usulda ko'paytiriladi, andozalar joylashmasi tayyorlanadi [6].

Tayyorlov uchastkasida gazlamalarning fizik-mexanik xususiyatlarini sinab ko'riladi va gazlamaning sifati tekshirib chiqiladi hamda gazlamalarni bichishga tayyorlanadi. Tayyorlov uchastkasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Gazlamalarni qabul qilish, o'rovini ochish, vaqtincha saqlash;
2. Gazlamalar sifatini tekshirish, uzunligi va enini o'lchash, sifati tekshirilgan gazlamalarni saqlash;
3. Gazlama to'plarini hisoblash, to'shama uchun gazlamalarni saralash, bo'rlama tayyorlash;
4. Tayyorlangan to'plarni bichish uchastkasiga yuborish.

Tayyorlov uchastkasida gazlamalar quyosh nuridan, past haroratdan, namlikdan, kemiruvchilardan himoya qilinishi kerak.

Gazlamalar sifati boshqa shahardan keltirilgan bo'lsa, 20 kun muddatdan kechiktirmasdan, shu shahardan keltirilgan bo'lsa 10 kun muddatdan kechiktirmasdan tekshirilishi lozim. Gazlama nuqsonini topish "BPM-2", "BPM-3", "Edelman" mashinalari yoki 3 metrli o'lchov stollari ishlatiladi. O'lchash natijalari har qaysi to'pning pasportiga yoziladi.

Yaponiyaning "Kominami" firmasining VK-50L mashinasi gazlamalarning uzunligi va enini o'lchaydi, sifatini tekshiradi va avtomatik tarzda to'pning pasportini yozib chiqaradi. Bu operatsiyalarni bajaruvchi Fransiyada chiqarilgan «Alpis» mashinasi ham mavjud.

Sifati tekshirilayotgan gazlamalarda nuqson topilsa, gazlamaning yuz tomoniga bo'r bilan belgilanadi va milkiga rangli iplar yoki yopishqoq lenta bilan «signal» biriktirib qoyiladi.

So'ngra tekshirilgan gazlamalar hisobchilarga yuboriladi. Hisobchilar esa gazlamalarni qoldiqsiz bichish uchun to'plarni hisoblaydilar.

Tayyorlov uchastkasida tanlab olingan avralik, astarlik, qotirmalik, bezak materiallar va bo'rlamalar birgalikda bichish uchastkasiga yuboriladi.

Bichish uchastkasida gazlamani bichish texnologik jarayoni quyidagi texnologik operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Bichish sexida avra, astar va qotirma materiallarini to'liq to'plamda tayyorlov sexidan qabul qilish;
2. Gazlamani to'shash;

3. To'shamani ustki birinchi qavatida bo'rlamani bajarish yoki tayyor bo'rlamani to'shama ustiga yozish;

6. To'shamani bo'laklarga bo'lish;

7. Buyum detallarini qirqib olish;

9. Bichiq detallarini sifatini tekshirish;

10. Buyum detallarini razmer va rostlar boyicha bog'lamga to'plab bog'lash;

11. Buyum detallarini nomerlash va bog'lamlash;

12. Buyumni yo'l varaqasini to'ldirish;

Avtomatik tarzda to'shamani tayyorlash uchun Fransiyada chiqarilgan «Lektra» tizimining «LEKTRA YE-73» to'shah qurilmasi bor.

To'shama tayyor bo'lgandan keyin uning ustiga bo'ylama to'shaladi va o'chib ketgan noaniq chiziqlari bo'r bilan chiziladi. Tayyor bo'lgan to'shamadan buyum detallari bichiladi.

Gazlamalarni bichishning ikki xil usuli: gazlamani universal asbobda va maxsus asbobda bichish usullari bor.

Gazlamani universal usulda bichishda xilma-xil qaychilar va arralar ishlatiladi. Bundan tashqari universal qishda EZM-2, EZDM-1, EZDM-2, OM-2, M-3, Vengriya «Pannoniya» firmasining CS-529, CS-530 markali vertikal va disk pichoqli ko'chma bichish mashinalari ishlatiladi. Bundan tashqari bichish uchastkasida AQSH «Gerber» firmasining S-91 avtomatik bichish tizimini qo'llash mumkin. Buyum detallarini razmer va rostlar boyicha bog'lamga to'plab tikish uchun tikish sexiga yuboriladi.

Tikish sexida buyum texnologik xarita asosida tikiladi va buyumga pardoqlash ishlari berilib tekshiruvdan o'tkaziladi va qadoqlanadi.

Ushbu mavzuni tushuntirishda "Munosabat" texnologiyasidan foydalanib, o'rganilayotgan mavzudan turli muammolarni hal etishga, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llarini topishga, o'quvchilarni esa mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrlarini isbotlash hamda turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatishda "Muammoli vaziyat" shaklini qo'llash mumkin.

“Muammoli vaziyat” texnologiyasi bo’yicha quyidagi muammolar yechimini topish vazifasi topshiriladi (2.3-jadval).

2.3-jadval

Vaziyat turi	Vaziyatning sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Tikuvchilik korxonalarida mahsulot sifatini pasayishi	<ul style="list-style-type: none"> • gazlama tayyorlash uchun ishlatiladigan xom-ashyoni saqlash qoidalariga amal qilinmasligi; • gazlama ishlab chiqaruvchi dastgohlarning eskirishi. 	Gazlama tayyorlash uchun ishlatiladigan xom-ashyoni saqlash qoidalariga amal qilinishi ta’minlash, tikuvchilik korxonasi zamonaviy dastgohlari bilan ta’minlash.

Dars yakunida o’qituvchi o’quvchilar guruhi fikrlarini yakunlab, yakuniy xulosa chiqaradi.

Mehnat darslarida muammoli o’qitish metodlaridan foydalanishga oid ko’plab yuqoridagi kabi misollar keltirish mumkin.

Ikkinchi bob bo’yicha xulosa

Mazkur bobda pedagogik texnologiyalardan ta’lim tizimida foydalanish imkoniyatlari, o’quvchilar ijodkorlik faoliyatini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish, o’quvchilar ijodkorlik faoliyatini muammoli o’qitish texnologiyalari metodlari yordamida shakllantirish, muammoli vaziyat metodlaridan “Bumerang”, “Rezyume”, “Muammo” texnologiyalaridan mehnat darslarida foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan. Shuningdek, “Texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari” mavzusini “Klaster” va “Muammoli vaziyat” texnologiyalari yordamida o’qitish metodikasi ishlab chiqilgan.

Xotima

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida IX sinf mehnat darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, mehnat darslarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga doir pedagogik-psixologik adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy ishlanmalar va maqolalar tahlil qilindi.

1. Mehnat ta'limi darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanishga doir adabiyotlar, ilmiy-tadqiqotlar o'rganildi, pedagogik-psixologik, uslubiy jihatdan tahlil qilindi.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari IX sinf mehnat fani "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzulari tahlil qilindi. Mehnat ta'limi darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

3. Mehnat darslarida o'quvchilar ijodkorlik faolligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limiga oid turli mavzular yordamida tushuntirib berildi.

4. IX sinf mehnat fani "Servis xizmati" yo'nalishi "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limi mavzularida fanalararo integrasiyadan foydalanish dars ishlanmalari yordamida ko'rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. //Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Шарқ, 1997. – 20-29 б.
2. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Ўзбекистон Республикасининг қонуни.//Баркамол авлод -Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 32-61 б.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Mehnat ta'limi, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya (1-9 sinflar). Ta'lim markazi. –Т.: 2010, -292 б.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012 yil 16 maydagi 160-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2012-2013 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida. –10 б.
5. Jo'rayev H.O., Quliyeva Sh. H., To'rabekov F.S., Karimova M.N. Texnik ijodkorlik va dizayn. – Т.: TuronZaminZiyo, 2015. – 240 б.
6. Gaipova N.S., Ismatullayeva M.Z., Axmetova A.S., Ismatullayeva X.Z. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. – Т.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006, – 112 б.
7. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). - Т.: "Истеъдод" жамғармаси, 2010. – 142 б.
8. Йўлдошев Ж.Ғ, Усмонов С.А. Педагогик технология асослари (Халқ таълими ходимлари учун қўлл.). – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 101 б.
9. Каримов И. Меҳнат таълими ўқитиш технологиялари. – Т.: РТМ, 2008. – 68 б.
10. Каримов И. ва бошқ. Меҳнат таълими дарсларида фанлараро боғланишлар. – Т.: РТМ, 2008. – 37 б.

11. Каримов И. Меҳнат таълими ўқитиш технологиялари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 228 б.
12. Karimov I., Maksimova M., Tohirov O'. Mehnat ta'limi darslarini tashkil etish. – T.: RTM, 2014. – 132 .
13. Олимов Қ.Т., Жалолова Д.Ф., Каримова М.Н. ва бошқ. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 240 б.
14. Пўлатов И.П., Исамитдинов С.С., Одилов С.А. Таълимда инновация. – Тошкент: Фан, 2007. – 170 б.
15. Розиков О.Р., Адизов Б.Р., Нажмиддинова Г.Н. Умумий дидактика. – Бухоро. Дурдона, 2012. – 322 б.
16. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006. – 228 б.
17. Шодмонова Ш.С. ва бошқ. Педагогик технологиялар. – Т.: Фан ва технология, 2011. – 148 б.
18. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007 . – 159 b.
19. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. –Toshkent. 2014. – 456 b.
20. Шарипов Ш.С. Касб-хунар таълими тизимида ўқувчилар ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришнинг узлуксизлиги. Монография. – Т.: Фан, 2005. – 130 б.
21. Sharipov Sh. va boshqalar. Mehnat ta'limi 5-sinf. –T. Sharq, 2012. –250 b.
22. <http://www.ziyonet.uz>
23. <http://www.mehnatdarsi.uz>
24. <http://www.pedagog.uz>
25. <http://www.uzedu.uz>

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA

TOPSHIRIQ SHAKLI

Buxoro davlat universiteti
Pedagogika fakul'teti

Ta'lim yo'nalishi: **5112100 “Mehnat ta'limi”**

Kafedra: **Mehnat ta'limi**

Bitiruv malakaviy ish bo'yicha TOPSHIRIQ VARAQASI

1. Ijrochi: **HAMROYEVA XONZODA DAVRONOVNA**

2. Mavzu: 9-sinfda «Ishlab chiqarish asoslari» bo'limi mavzularini o'qitish metodikasi (“Servis xizmati” yo'nalishi mavzulari misolida) mavzu universitet Kengashining «____» _____20____ yildagi _____ sonli qarori va universitet rektorining «____» _____20_ yildagi _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

3. Mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy (iqtisodiy, ekologik, ilmiy-texnik, mehnat muhofazasi, hayot xavfsizligi va h.k.) ahamiyati Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Shunday yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish uni zamonasining eng ilg'or bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan har bir sohada rivojlanishni talab qiladi. Buning uchun o'quvchi yoshlarimizning qiziqish va qobiliyatlariga qarab rivojlantirib borishimiz lozim.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, bitiruv malakaviy ish mavzusini «9-sinfda «Ishlab chiqarish asoslari» bo'limi mavzularini o'qitish metodikasi (“Servis xizmati” yo'nalishi mavzulari misolida)» deb nomlanishiga asos bo'ldi.

4. Malakaviy ishni bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy, o'quv-uslubiy va boshqa axborot manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matni, monografiya, ilmiy maqolalar va h.k)

1. Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. //Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Шарқ, 1997. – 20-29 б.

2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Mehnat ta'limi, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya (1-9 sinflar). Ta'lim markazi.T-2010. -292 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012 yil 16 maydagi 160-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2012-2013 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida. -10 b.

4. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. –Toshkent. 2014. – 456 b.

5. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ma'lumotlar to'plash hamda tadqiqot ishlari olib boorish manbalari va joylari (o'quv zali va xonalari, ilmiy kutubxona, laboratriya, tashkilot, korxonalar, ilmiy yoki ta'lim muassasasi)

1. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat markaziy kutubxonasi
2. Buxoro davlat universiteti axborot resurs markazi

3. <http://www.ziyonet.uz>

4. <http://www.uzedu.uz>

6. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash bo'yicha amalgam oshirilgan ishlar rejasi:

No	Ishning mazmuni	Taxminiy hajmi (bet)	Ijro muddati	Izoh
1.	Masalaning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalaning mohiyati va maqsadini yoritib berish, ilimiy yangiligi (kirish qismi).			
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (yordamchi mulohazalar va faktlar)			
3.	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari, natijalarni tahlil qilish va tartibga solish (bob, ragraf, bo'lim yoki qismlar bo'yicha).			
4.	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha xulosalar berish hamda tadbiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash			
5.	BMIning rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko'rgazmali vositalarni (kompak disk, slaydlar, jadvallar, rasmlar, grafiklar, diagrammalar, maket, stend, h.k)			
6.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik ko'rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash			

7. Ilmiy maslahatchilar:

Maslahatchi	Bo'limlar	Topshiqir	Izoh

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots. H.O.Jo'rayev

Kafedra mudiri .

p.f.n., dots. Sh.H.Quliyeva

Topshiriqni bajarishga oldim

Hamroyeva Xonzoda Davronovna

«_____» _____ 20__ y.